

**Rashidova Mehriya Muzaffarovna**  
Buxoro tumani 5-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi,  
mustaqil izlanuvchi

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA "LOYIHA ISHI" INTERFAOL USULI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

Bizga ma'lumki hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi g'oyalarni ilgari surish uchun, yangi axborotni o'zlashtiradigan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan mustaqil va erkin fikrlaydigan o'quvchilar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv –tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Men ham o'z ish faoliyatimda o'quvchilarga ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitishimda turli xil innovatsion pedagogik texnologiyalardan, turli xil interfaol usullardan foydalandim. Bu yangicha interfaol usullar o'quvchilarni hamkor bo'lib ishlashga, mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta imkon berdi. Jumladan "Mening loyiham" metodikasini o'qish savodxonligi darslarida qo'llab ko'rganimda o'quvchilardagi iqtidor va nazariy bilimlarni amaliyotda tezkor qo'llab, o'zlarining g'oyalarini bayon etishga harakat qilishdi. Bu esa o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni orttirib, yaratuvchanlik tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladi.

"Mening loyiham" metodini o'tkazish tartibi.

Bu metod murakkab, hayotiy, ko'ptarmoqli bo'lib, bo'limni, bobni takrorlashga qaratilgan.

Metodnin mohiyati shundaki, bunda mavzularning turli tarmoqlari bo'yicha o'quvchi bilimining axboroti namoyon bo'ladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida elementlarda munhokama etiladi.

Metodning maqsadi: Tanlanga mavzu, g'oya asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish erkin bajarishga sharoit yaratish, og'zaki nutqni o'stirish, o'z fikrini bayon qilishga, tasavvurlarini so'z bilan ifodalashga o'rgatish.

Metodning qo'llanilishi. Ona tili va o'qish savodxonligi mavzularining bo'lim va boblarning takrorlashlarida, sinfdan tashqari o'qish vaqtida va darsdan so'ng to'garak mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, metodik mashg'ulotni yakka va kichik guruh shaklida o'quv xonasida yoki boshqa alohida xonada o'tkazilishi mumkin.

Metodda foydalaniladigan vositalar: A3 format, rangli qalam va flamaster, tindirilgan xamir, xamir kesuvchi shaklli gullar va kakao, shaker kukuni, bezak uchun rangli shokoladlar. Rangli qog'oz, yelim, qaychi 3D shaklidagi konstruktor binolar, Matematik yog'och cho'plar, plastilin, yostiqlik, ko'rpacha, o'yinchoq buyumlari o'yinchoq beshik.

Metodni o'tkazish tartibi:

- O'qituvchi metodni boshlashdan oldin "Mening loyiham" da qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi. Qaysi bob mavzulari asosida bo'lishini o'quvchilarga tushuntiradi.

- O'qituvchi o'quvchilarni 2 guruhga ajratib, sinfdan masalan 30ta o'quvchi bo'lsa 10 tasi metodni bajarishga ishtirok etadi. Qolganlari ularning ish jarayonini kuzatib turishadi. Birinchi guruh tugagandan keyin 2-guruh boshlaydi.

- O'quvchilar o'zlari uchun ijodiy topshiriqlarni erkin tanlashadi va ish jarayoni boshlanadi.

- O'qituvchi har bir o'quvchini maqsadiga yo'naltirib, ularni boshqarib, aytilgan fikrlarga o'zining munosabatini bildirgan holda o'quvchini rag'batlantirib yakunlaydi. "Mening loyiham" innovatsion metodi quyidagi ijodiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. Xamir bilan ishlash

Unda o'quvchi o'tilgan mavzudagi qahramon va obrazlarni xamirdan yasab uni shirinlik tariqasida bolalarga bayon qilib beradi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni tanlab o'shani xamirdan shaklini yasab,uni sinfdoshlariga shirinlik tariqasida sovg'a qilib beradi va o'zining tasavvuridagi tadbirkorlikni aytib beradi.

#### 2. Konstruktorlarda ishlash

Unda o'quvchi o'tilgan mavzularni og'zaki bayon etayotib bir vaqtda turli xil shakllarni yasaydi va uni mavzuga bog'lab matn tuzib aytadi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni, sotish uchun katta Super marketni 3 D konstruktorida maket yasab,u yerda tadbirkorlikni qilishni og'zaki bayon qiladi.

#### 3. Plastilinda ishlash

Unda o'quvchi mavzu yuzasidan o'zining yaxshi ko'rgan obrazlarini gavdalandirib, u haqida ta'rif beradi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni O'ziga yoqqan zamonaviy tadbirkorlarni obrazlarini yoki bo'lajak o'zini tadbirkor holida plastilindan gavdalandiradi

#### 4. Mo'yqalamda ishlash

O'quvchilar o'tilgan mavzulardagi tabiat hodisalarini tasavvur qilib rasm chizib, uni izohlab berishadi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni,oq qog'ozda ularni chiroyli qilib rasmlarini,tasavvuridagi super market va tadbirkorlarni rasmini chizadi va tasavvurini bayon qiladi.Bu o'quvchiga zavq beradi.

#### 5. Rangli qog'ozda ishlash

O'quvchi o'tilgan mavzu bo'yicha o'zining g'oyasini rangli qog'oz bo'laklaridan qirqib, yopishtirib, so'ngra uni bayon qiladi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni va o'zining tasavvuridagi tadbirkorni rangli qog'ozlardan qirqib, yopishtirib o' mahsulotini namoyish qiladi.

#### 6. Matematik cho'pda ishlash

O'quvchilar o'tilgan mavzulardagi sonlar yoki yillar yoki joylarini mantiqiy cho'plar bilan ko'rsatib yoki geometrik figurani yasab, ko'rsatishi va uni izohlashi lozim bo'ladi. Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu "Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz.Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz.O'z mahsulotingizni namoyish qiling" deb berilgan topshirig'ini bajarishda o'quvchi o'zi xoxlagan meva yoki sabzavotlarni narxi va kilogramlaridagi sonlarni,cho'pda yasab o'zining biznesida qancha foyda va zarar ko'rishkabi tasavvurlarini aytib beradi.

#### 7. "Mehmondorchilikda" ishlash

Bunda o'quvchi uy sharoitidagi oldindan tayyorlangan (yostiq, ko'rpacha to'shalgan) joyda juft bo'lib mehmon o'yini boshlanadi. Bir o'quvchi mezbon va bir o'quvchi mehmon bo'lib uyga o'ynash uchun o'tirishga kelishadi. Va ular o'tilgan mavzunining birini tanlab, bir piyola choy ustida bir-birovlariga aytib berishadi.She'r bo'lsa uni qo'shiq qilib ijro qilishadi.

Masalan 3- sinf Ona tili II qism darsligidagi 20- betda berilgan 6- mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz. Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz. O‘z mahsulotingizni namoyish qiling” deb berilgan topshirig‘ini bajarishda 1 o‘quvchi xaridor 2 o‘quvchi esa sotuvchi bo‘lib o‘zaro o‘zlari xoxlagan meva yoki sabzavotlarni aytib, undan qancha foyda va zarar ko‘rishlari, ularning tasavvurlaridagi tadbirkor holatlarini, fikrlarini namoyish etishadi va suhbat qilishadi. O‘zaro hurmat ko‘rsatish malakasini namoyish etishadi.

Yuqorida keltirilgan “Mening Loyiham” tavsiyalariboshqa ko‘plab mavzularda ham qo‘llanilsa, yaxshi samara beradi. Jumladan 2-sinf Ona tili I qism (2023 yil) 84 betdagi 6 mavzu “Mening mahallam” mavzusida Katta shahar loyihasini ishlab chiqish topshirig‘ini o‘quvchilarga xuddi shunday bajartirsak, kutilgan natijani albatta beradi. Yana 3- sinf Ona tili II qism (2023) darsligidagi 20 betda berilgan 6-mavzu “Tasavvur qiling siz tadbirkorsiz. Kuzgi meva va sabzavotlardan mahsulot ishlab chiqardingiz. O‘z mahsulotingizni namoyish qiling” degan topshiriqni yuqorida aytib o‘tilgan loyiha ishi orqali bajartirilsa juda yaxshi o‘quvchilarga samara beradi. Xuddi shunday topshiriqli 4- sinf Ona tili II qism (2023 yil) darsligidagi 51 betdagi 66-mashqda ko‘rish mumkin. Sog‘lom ovqatlanishingiz uchun qanday foydali taomlar iste‘mol qilasiz? Topshirig‘ini loyiha ishi asosida bajartirsak o‘quvchilarni bilimi oshirishga mustaqil fikr yuritishga katta hissa qo‘shadi.